


2021- yil yanvar-fevral oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatida jami 725,1 mld. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 96,7 %ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar-fevral oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo‘yicha
faoliyat ko‘rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
soni**

2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o’tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,3 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,2 mingtani tashkil etib, o’tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 361 taga oshdi.

2021 yilning yanvar-fevral oylarida o’tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi ko‘payib 3,1 martani (jami qurilishdagi ulushi 56,1 %ni) tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g’ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi jami ko‘rsatkichga nisbatan 94,3 %ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, %da
	01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
Samarqand viloyati	2 789	3 150	361
Samarqand sh.	1004	1104	100
Kattaqo'rg'on sh.	86	104	18
tumanlar:			
Oqdaryo	112	155	43
Bulung'ur	58	69	11
Jomboy	103	120	17
Ishtixon	134	145	11
Kattaqo'rg'on	113	124	11
Qo'shrabot	65	68	3
Narpay	76	85	9
Payariq	219	259	40
Pastdarg'om	284	315	31
Paxtachi	58	64	6
Samarqand	114	140	26
Nurobod	44	46	2
Urgut	205	221	16
Toyloq	114	131	17



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (%da), 01.03.2021- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalarini soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (35,1 %), Pastdarg'om (10,0 %) va Payariq (8,2 %) tumanlaridir.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **57,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **3,9** martaga ko‘p bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan **5,9 %** punktga ko‘paygan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **40,0 %i** yoki 2020- yilning yanvar-fevral olyariga nisbatan **1,6** marta ko‘p), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,1 %i**), Kattaqo‘rg‘on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,3 %i**), Bulung‘ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,1 %i**), Paxtachi (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,4 %i**) va Pastdarg‘om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,1 %i**) tumanlarga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021-yil yanvar-fevral
- 2020-yil yanvar-fevral

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **72,1** % bajarilib, 2020- yilning yanvar-fevral oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,1** % punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **97,7** %ni tashkil etgan holda **523,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **20,0** %ni tashkil etib, **145,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **71,3** %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi

ulushi %da

mldr. so‘m



■ 2020-yil yanvar-fevral ■ 2021-yil yanvar-fevral ■ 2020-yil yanvar-fevral ■ 2021-yil yanvar-fevral

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **34,6** mldr. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **116,4** %ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,8** %ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **690,5** mldr. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **95,8** %ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **95,2** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da

2021-yil yanvar-fevral



Davlat mulki



Nodavlat mulk

95,2

4,8

2021-yil
Yanvar-fevral

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-fevral

67,3 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **67,3 %** yoki **488,3 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

9,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **45,1 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,2 %ni** tashkil etdi.

61,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **300,3 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **61,5 %ni** tashkil etdi.

29,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **142,9 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,3 %ni** tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-fevral oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	725,1	96,7	488,3
Samarqand sh.	263,6	97,8	177,5
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	15,9	118,5	10,7
Oqdaryo	61,7	99,7	41,6
Bulung‘ur	17,6	113,6	11,9
Jomboy	36,5	99,0	24,6
Ishtixon	36,8	100,5	24,8
Kattaqo‘rg‘on	23,1	100,8	15,6
Qo‘shrabot	18,0	97,7	12,1
Narpay	22,9	96,6	15,4
Payariq	50,4	101,5	33,9
Pastdarg‘om	34,2	65,1	23,0
Paxtachi	17,4	81,5	11,7
Samarqand	33,0	91,7	22,2
Nurobod	8,6	80,5	5,8
Urgut	41,0	98,9	27,6
Toyloq	44,4	111,2	29,9

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtigan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-fevral

8,2




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

18,9



Fuqarolik obyektlarini
qurish

72,9



Bino va inshootlarni
qurish

3,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

56,1



Fuqarolik obyektlarini
qurish

40,1



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,5 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,9 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **35,2 %** punktga kamayib, **30,8 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **34,2 %** punktga ko'payib, **61,7 %**ni tashkil etdi.



2021- yil
Yanvar-fevral

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 5,6 %ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **28,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **94,3 %** (**30,3 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %ni** (**1,6 %** punktga kamaydi) tashkil etdi.



2021- yil
Yanvar-fevral


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi %da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,2** %ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8,8** % punktga ko'paydi. **79,8** % ulush (**9,1** % punktga kamaygan) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.



2021- yil
Yanvar-fevral

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-fevral oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. soʻm)

Samarqand sh.
263,6

1

2

Oqdaryo
61,7

Payariq
50,4

3



Eng kichik hajm

(mlrd. soʻm)

Nurobod
8,6

2

1

Paxtachi
17,4

3

Kattaqoʻrgʻon sh.
15,9





SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

**2021-yil
Yanvar-fevral**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari